

Mavzu: Amir Temur - markazlashgan davlat asoschisi.

I.DARSNING MAQSADI:

Ta'limiy maqsad: o'quvchi yoshlarga Amir Temur saltanatining porakandalikka uchrab parchalanishi va buning oqibatlarini haqida o'quvchilarga to'liq ma'lumot berish.

Tarbiyaviy maqsad: o'quvchi yoshlarni buyuk o'tmishimizga hurmat, ulug' ajdodlarimizga ehtirom, ularga munosib avlod bo'lishdek milliy ruhda tarbiyalash.

Rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchi yoshlarda xarita bilan mustaqil ishlash, qo'shimcha ma'lumotlar ustida ishlash ko'nikmasini rivojlantirish. Buyuk tariximiz, ajdodlarimiz haqida bilim malakasini oshirish.

DARS TURI: *Yangi mavzuni bayon etish darsi.*

DARSDA FOYDALANILGAN TURLI XIL METODLAR: *Aqliy hujum, B x B x B strategiyasi, taqqoslash.*

DARSDA FOYDALANILGAN JIHOZLAR:

1. 7-sinf uchun "O'zbekiston tarixi" darsligi
2. Xaritalar, plakatlar
3. Rasmlar, ko'rgazmali qurollar
4. Tarqatma savollar
5. OAV dan olingan materiallar, q'oshimcha adabiyotlar
6. Internetdan olingan film, slaydlar
7. Doska, bo'r


DARSNING TARKIBI:

I. Tashkiliy qism:

1. O'quvchilarni darsga jalb qilish.
2. Davomadni aniqlash.
3. Yurtimiz va jahonda yuz berayotgan yangiliklar bilan o'quvchilarni tanishtirish.

II. O'tilgan mavzuni mustahkamlash:

a) BxBxB strategiyasidan foydalaniladi

| BILARDIM | BILMOQCHIMAN | BILIB OLDIM |
|---|--------------|-------------|
|  | | |

B) Tezkor savol-javob:

1. XIV asrning 50-60-yillarida Keshda kim hokim edi?

2. Amir Temur necha yoshida o'qishni o'rganadi?
3. Amir Temur Tug'luq Temur tomonidan o'z viloyatida qanday lavozimga tayinlanadi?
4. Tarixda "Loy jangi" nimi bilan shuhrat topgan jang qachon bo'lib o'tgan?
5. Sarbadorlar atamasini tariflang?
6. Sarbadorlar harakatiga boshchilik qilgan mudarris kim edi?
7. Sarbadorlar hokimiyatni o'z qo'llariga olgach qanday soliq turini bekor qilishdi?
8. Sarbadorlar harakati qanday yakun topdi?

III. Yangi mavzuni tushuntirish:



DARS REJASI:

1. Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelishi.
2. Amir Temurni Amir Husayn bilan olib brogan urushlari.
3. Amir Temurni Movarounnahrning amiri deb e'lon qilinishi.

A) Asosiy tushunchalar:

Amir Temur hukmronligining boshlanishi. Oliy hokimiyat ramzi. Markazlashgan davlat. Movarounnahr va Xurosonning birlashtirilishi.

B) BxBxB strategiyasidan foydalaniladi.

| BILARDIM | BILMOQCHIMAN | BILIB OLDIM |
|---|---|-------------|
|  |  | |

C) XIV asrning 60-yillarida Movarounnahrda hukm surgan og'ir siyosiy va iqtisodiy vaziyat mamlakatni birlashtirib, kuchli bir davlat tashkil etishni talab qilmoqda edi. Amir Temur o'z zamonasining bunday talabini boshqa amirlarga nisbatan yaxshiroq tushunardi. Shuning uchun ham u markazlashgan davlat tuzishga kirishdi.

1370-yilning bahorida Amir Temur butun qo'shlari bilan kuchli raqib – Balx hukmdori Amir Husaynga qarshi yo'lga chiqadi. Qo'shin Termiz yaqinidagi Biyo qishlig'iga yetganida uning huzuriga taniqli ulamolardan Sayyid Baraka tashrif buyuradi. Sayyid Baraka Amir Temurning faoliyatini qo'llab-quvvatlab, unga oliy hokimiyat ramzi tabl bilan yalovbayroq tortiq qilib, uning buyuk kelajagidan bashorat qiladi.

1370-yilning 11-aprelida Chig'atoy ulusining bek va amirlari, viloyat va tumanlarning dorug'alari, Amir Temurning quroldosh do'stlari, shuningdek, Amir Temurning piri Sayyid Baraka ishtirokida qurultoy o'tkaziladi. Qurultoyda Amir Temurning hukmdorligi rasman tan olinib, u Movarounnahrning amiri deb e'lon qilinadi.

Amir Temur sharqiy hududlarni mo'g'ullar ta'siridan ozod etish uchun Sharqiy Turkiston tomon bir necha marta yurish qilib, Mo'g'uliston xonlariga zarba berib, Farg'ona vodiysi hududlarini, O'tror, Yassi (Turkiston) va Sayramni o'z tasarrufiga oladi. 1381-yilda Hirot, Seiston, Mozandaron egallandi.

Amir Temur saltanati bilan Oltin O'rda xonligi oralig'ida bu davrga kelib mustaqil bo'lib olgan Xorazm davlati qaror topgan edi. Amir Temur Xorazmni 1388-yili uzil-kesil bo'ysundirdi.

Shunday qilib, Amir Temur Movarounnahr, Xuroson va Xorazmni birlashtirib, yirik markazlashgan davlat tuzdi. Bu ulkan hududda yashovchi xalqlarning birlashuvi ular taqdirida ijodiy ahamiyatga ega bo'ldi.


D) Qo'shimcha ma'lumot:

“Temur baland qadli, uzun bo‘yli tik qomatli, go‘yo u qadimiy pahlavonlar avlodlaridan bo‘lib keng peshonali, katta boshli, g‘oyatda kuchli va salobatli, ajoyib bo‘lalik, rangi oqu qizil yuzli, lekin dog’siz, bug’doy rang emas, qo‘l-oyoqlari baquvvat, yelkalari keng, barmoqlari yo‘g‘on, poychalari semiz, qaddi-qomati kamoliga yetgan, sersoqol, o‘ng oyoq-qo‘li cho‘loq va shol, ikki ko‘zi bamisoli ikki sham bo‘lsada, shodligi bilinmas, yo‘g‘on ovozli edi...”

Ibn Arabshoh “Amir Temur tarixi”dan.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash:

A) Davrlarni taqqoslash metodi.



B) Xarita bilan

ishlash.



C) Savol qopchasidan foydalanish.

- 1-raqamli savol: Amir Temur qachon Movarounnahrning amiri deb e‘lon qilindi?
- 2-raqamli savol: Kim Amir Temurga tabl va yalovbayroq tortiq qildi?
- 3-raqamli savol: 1381-yilda Amir Temur qayerlarni bosib oldi?
- 4-raqamli savol: Xorazm qay tariqa mustaqil bo‘lib olgan edi?
- 5-raqamli savol: Bu davrda Xorazmni kimlar boshqarar edi?
- 6-raqamli savol: Amir Temur Xorazmga necha marta yurish qilgan?
- 7-raqamli savol: Nechanchi yili Amir Temur Xorazmni uzil-kesil bosib oldi?
- 8-raqamli savol: Tabl so‘zining ma‘nosi nima?




V. Darsni yakunlash va o‘quvchilarni baholash.

A) “Xalqimiz bor ekan, Amir Temur nomi barhayotdir”


Prezidentimiz Islom Karimovning so‘zlagan nutqidan namoyish etiladi.



B) BxBxB strategiyasidan foydalaniladi

| BILARDIM | BILMOQCHIMAN | BILIB OLDIM |
|--|--|--|
|  |  |  |

C) Har bir o'quvchi mavsumga oid tarqatmalar yordamida baholanadi.



VI. Uyga vazifa:


1. O'tilgan mavzu bo'yicha savollar tuzish.
2. Amir Temur haqida qo'shimcha ma'lumot yozib kelish.
3. Navbatdagi dars mavzusini o'qib kelish.
4. Atamalarni yod olish.

DARSNING BLOK - CHIZMASI:

| № | DARS BOSQICHLARI | VAQT |
|---|------------------|------|
| | | |

| | | |
|----|-------------------------------------|-----------|
| 1. | Tashkiliy qism | 3 daqiqa |
| 2. | O‘tilgan mavzuni takrorlash | 8 daqiqa |
| 3. | Yangi mavzu bayoni | 20 daqiqa |
| 4. | Yangi mavzuni mustahkamlash | 10 daqiqa |
| 5. | Dars yakunini chiqarish va baholash | 2 daqiqa |
| 6. | Uyga vazifa berish | 2 daqiqa |

DARSNING TEXNOLOGIK XARITASI

| № | DARS BOSQICHLARI | DARS BOSQICHLARINING TARKIBI | VAQT |
|----|-------------------------------------|---|------------------|
| 1. | Tashkiliy qism | 1. O‘quvchilarni darsga jalb qilish. 2. Davomadni aniqlash. 3. Yurtimiz va jahonda yuz berayotgan yangiliklar bilan o‘quvchilarni tanishtirish. | 3 daqiqa |
| 2. | O‘tilgan mavzuni takrorlash | Zinama-zina texnologiyasi asosida o‘tilgan mavzuning o‘zlashtirilganligi aniqlanadi. | 8 daqiqa |
| 3. | Yangi mavzu bayoni | A)Asosiy tushunchalar. B) Mavzu bayoni. C)Qo‘shimcha ma’lumot. | 20 daqiqa |
| 4. | Yangi mavzuni mustahkamlash | Guruhlarda ishlash metodidan foydalaniladi. | 10 daqiqa |
| 5. | Dars yakunini chiqarish va baholash | Har bir o‘quvchi “Mavsumiy” shakllar yordamida baholanadi.  | 2 daqiqa |
| 6. | Uyga vazifa berish | 1. O‘tilgan mavzu bo‘yicha savollar tuzish. 2. Amir Temur haqida qo‘shimcha ma’lumot yozib kelish. 3. Navbatdagi dars mavzusini o‘qib kelish. 4. Atamalarni yod olish. | 2 daqiqa |

Ўроқова Нигора – Янгиер шаҳридаги 8-умумий ўрта таълим мактабининг тарих фани ўқитувчиси, “Вилоятнинг энг фаол фан ўқитувчиси” вилоят ҳокими педагогик гранти совриндори